



## SHOIR MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARINI YOSH TOIFALARIGA KO'RA O'QITISHDA INTERFAOLLAR USULLARDAN FOYDALANISH

---

Andijon davlat universiteti magistri  
**Sadridinova Madina Davronbek qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoir Muhammad yusuf sherlarini yosh toifaga kora o'qitish usullari yoritilgan hamda shoirning sherlarini maktab oquvchilari va talabalarga oqitishda interfaollar usullardan foydalanish haqida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiya, didaktika, Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" "FSMU", "Klaster"

**Abstract:** This article describes the methods of teaching poems of the poet Muhammad Yusuf according to the age group and the use of interactive methods in teaching the poems of the poet to schoolchildren and students.

**Key words:** Innovative technology, didactics, Cluster", "Brainstorming", "Continue", "Presentation", "Blitz survey", "Problem situation" "FSMU", "Cluster"

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.



“Innovatsion texnologiya – ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo’llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o’qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o’zgartirishlar kiritish bo’lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg’ulotga aylanadi.”<sup>1</sup>

Ko’p yillar davomida an’anaviy dars o’tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo’lib keldi. An’anaviy darsda o’qituvchi faol, o’quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o’quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to’sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o’quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o’quv jarayonidagi faolligini ta’minlashni taqozo etadi.

Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo’g’in hisoblanadi. Ular o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg’ulot turidir. Bunda o’qituvchi va o’quvchi o’zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to’qnashuvi yuzaga keladi. O’quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog’onaga ko’tariladi. O’qituvchi shu tarzda o’quvchilarni faollashtiradi, o’zlashtirishi past o’quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, uning sifati darsda qo’llanilgan metodlarga bog’liq. Darsning mazmunli o’tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o’qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to’g’ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o’qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o’tishni talab etadi. Buning uchun o’qituvchi doimo o’z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo’lishi va o’z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O’qituvchi bir vaqtning o’zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo’lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o’quvchilarga yetkazish usul va

---

<sup>1</sup> “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va tizimlar”. O’quv qo’llanma. Dadabaeva R. A., Nasridinova Sh. T., Shoaxmedova N. X., Ibragimova L. T., Ermatov Sh. T., “Sanostandart”. 2017.



shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo'q”, “Ta'rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

“Charxpalak”. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.



Xuddi ushbu metoddan Muhammad Yusufning hayoti va ijodi mavzusida ham foydalanish mumkin. Agar bu mavzu o'tgan darsda o'tilgan bo'lsa, darsning avvalida "Charxpalak" ni qo'llash orqali qayta takrorlab olish kerak. Agar mazkur mavzu o'sha darsning o'zida o'tilgan bo'lsa, dars oxirida bu metodni qo'llash orqali Muhammad Yusufni o'quvchiga yanada yaqinroq tanishtirish albatta, foydadan holi bo'lmaydi.

Yana bir foydali metodlardan biri bu Venn diagrammasi metodi hisoblanadi. Metodning maqsadi: grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi; navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar; juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqlarini) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

"Jim", "O'zim tekshiraman", "Bo'lishi mumkin emas" didaktik o'yinlarini ham Muhammad Yusufning hayoti va ijodini o'rganish mavzusiga bog'lagan tarzda o'rganish mumkin. Aslida barcha shoirlarning, shu jumladan Muhammad Yusufning ham vazifasi o'qiguvchini ma'naviy kamolotga erishishini ta'minlash edi. Ma'naviyat o'zi nima?

Ma'naviyat so'ziga prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas – kuch" asarida shunday ta'rif beradilar: "Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon - e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, barcha qarashlarining mezonidir".<sup>2</sup> Ma'naviyat asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan, kishilarning ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib kelayotgan kuchdir. Shunday ekan ma'naviyatli insonni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridandir. Agar ma'naviyatli insonlarni bugun yoshlarimiz orasidan yetishtirib chiqara olsak, ertangi kun kelajagimizning mustahkam poydevorini o'rnatgan bo'lamiz. "Bugungi kun ta'lim dasturlari talabiga ko'ra, yoshlarning ma'naviy boyligini oshirishda

<sup>2</sup> Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.



xalq ogʻzaki ijodi bilan birga vatanparvarlik ruhida yozilgan sheʼriy va nasriy yoʻl bilan yozilgan asarlar ham muhim oʻrin tutadi. Bunday asarlarda bugungi kunning muhim muammolari oʻz aksini topgan boʻlib, oʻquvchilarni zamon bilan hamfikir boʻlishga undaydi. Va asarlarda koʻtarilgan muammolarning yechimini topishi yoki oʻzining fikr-mulohazalarini bayon etishi mumkin. Bugungi globallashuv va integatsiyalashuv jarayonida maʼnaviyatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish butun jamiyatimizning bosh masalasidir. Shunday ekan yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida sugʻorilgan asarlar bilan tanishtirish har bir pedagogning burchidir.”<sup>3</sup>

Muhammad Yusuf hayoti va ijodini muammoli taʼlim asosida oʻrganishning bir qancha afzalliklari bor. Bu metod orqali oʻquvchilarni badiiy asarlarni chuqurroq tahlil qilish malakasi oshiriladi. Aslida muammoli taʼlim yaratishning bosh maqsadi oʻquvchilarni har tomonlama aqliy rivojlanishini koʻrsatuvchi asosiy faktor uning yuqori darajada mustaqil fikrlay olish qobiliyatidir. Agar oʻquv jarayoni oʻquvchini mustaqil fikr yurita olishga oʻrgatsa, unday taʼlimni rivojlantirishga asoslangan oʻquv-biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

“Muammoli vaziyat quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Muammoli vaziyatni keltirib chiqarish;
2. Muammoli vaziyatni asoslash va tushuntirish;
3. Muammoli vaziyatni oʻquvchilar bilan birgalikda tahlil qilish;
4. Muammoli vaziyat yechimining bir necha usullarini aniqlash;
5. Muammoning natijaviy yechimini tanlab, har tomonlama baholash.”<sup>4</sup>

Muhammad Yusufning ijodi bilan birga uning hayotini oʻrganishda muammoli taʼlim metodidan foydalanishimiz mumkin. Bunda Muhammad Yusufning hayotiga oid biror muammoli savol oʻquvchilar oʻrtasiga tashlanadi. Masalan:

a) Muammoli vaziyat keltirib chiqariladi: Muhammad Yusuf Andijonning Marhamat tumanida tugʻilmaganida shunday goʻzal asarlar yoza olarmidi?

b) Muammoli vaziyat asoslanadi: Muhammad Yusuf 1954-yili Andijon viloyati Marhamat tumanida oddiy oilada tugʻilgan.

c) Muammoli vaziyatni oʻquvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi: Muhammad Yusuf hayoti va ijodini har xil usullar bilan oʻrganish mumkin.

<sup>3</sup> Karimov I. A. “Adabiyotga eʼtibor – maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor”. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2009

<sup>4</sup> Arxiv.uz sayti maʼlumoti



d) Muammoli vaziyatni yechishning bir necha usullari aniqlanadi: O'zbekistonning barcha joylari so'lim va go'zal. Farg'ona viloyati esa o'zgacha chiroylidir. Bu yerning tog'lari, adirlari, odamlari ham o'zgachadir.

e) Muammoli vaziyatning yechimi topiladi: Yo'q, Muhammad Yusuf Andijonda tug'ilmaganida bunday ajoyib she'rlar yoza olmagan bo'lar edi.

Xulosa: Bu davr o'zbek adabiyotida bir qancha shoirlar ko'zga tashlanib qolgan, ularning deyarli hammasi adabiyot osmonida porloq yulduzlar kabi nur sochmoqda edi. Mana shu porloq yulduzlar orasida Muhammad Yusuf ham bor bo'lib, uning yog'dulari hali hanuzgacha adabiyotimiz osmonini yoritib kelmoqda. Uning vatan, muhabbat, sevgi, ona, hayot haqida yozgan o'lmas she'rlari va dostonlari uzoq vaqt insonlar hayolidan chiqmaydi, yuraklarining tub-tubiga jo bo'lib qoladi.

Muhammad Yusuf chin muhabbatni kuyladi. Uni xar hil jimjima so'zlarga o'rab-chirmab emas, shunchaki boricha she'rga tizdi, yurak dardlarini mana shu she'rlariga singishtirib yubordi. Shoirning yurak dardlarini uning "Mehr qolur", "Vatanim", "Surat", "Osmonning oxiri", "Qora quyosh" kabi she'r va she'riy dostonlari orqali anglashimiz mumkin. Adib hayoti qiziqarli va sermazmundir. Uning ijodi esa olamlarga tatiydi. She'rlaridagi mavzularning xilma-xilligi va rang-barangligi Muhammad Yusufning serqirra ijodkor ekanligini ko'rsatadi. Bu esa adib hayoti va ijodining yana ham chuqurroq o'rganishni talab qiladi. Shoirning hayoti va ijodini o'rganish uchun birgina muammoli ta'lim metodidan emas, balki boshqa bir necha metodlardan foydalanishimiz kerak. "Bunday metodlarga "Aqliy hujum" metodi, "Qarorlar shajarasi" metodi, "Klaster" metodi kabi metodlar kiradi."<sup>5</sup>

Muhammad Yusuf bugungi kunda oramizda yo'q bo'lsa-da ammo asarlari orqali yuragimizda yashaydi. Xalqimizda bir naql bor: odamlarning yashab o'tgan umri emas, balki, qilgan ishlari ularning umrini belgilaydi. Muhammad Yusuf ham shunday qisqa umr ko'rgan bo'lsa ham, asrlarga yetgulik asarlar yozdi, o'zbek xalqining yuragidan chuqur joy oldi. Uning she'rlari hozirda dunyoning boshqa tillariga: ingliz, fransuz, nemis, rus tillarga tarjima qilinmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har bir yosh toifasiga ayni turdagi o'qitish metodini amalda qo'llab bo'lmaydi. O'quvchining yoshi, sinfi, darajasiga ko'ra bu metodlar o'zgarib turishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga shoir ijodini yengil uslubda, yuqori sinflarga esa atroflicha tushuntiradigan bir uslubda

---

<sup>5</sup> Boqijon To'xliyev. "Adabiyot o'qitish metodikasi". Toshkent. 2008



o'qitish shart bo'ladi. She'rlarini yod olish topshirig'i berilganda ham pastki sinflarga osonroq, musiqiylikka mos tushadigan, albatta, yoshiga ham mos bo'lgan; yuqori sinf o'quvchilariga esa biroz murakkabroq va hajmi kattaroq she'rlarini tanlash kerak bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va tizimlar". O'quv qo'llanma. Dadabaeva R. A., Nasridinova Sh. T., Shoaxmedova N. X., Ibragimova L. T., Ermatov Sh. T., "Sanostandart". 2017.
2. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I. A. "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor". Toshkent, "O'zbekiston", 2009
4. Boqijon To'xliyev. "Adabiyot o'qitish metodikasi". Toshkent. 2008
5. Mirvaliyev S. "O'zbek adiblari". Toshkent: "Fan", 1993.